

# YURAK-QON TOMIR TIZIMI KASALLIKLARIDA HAMSHIRALIK PARVARISHI.

*Sherg'oziyeva Hilola Kamolxon qizi*

*Rishton Abu Ali ibn Sino nomdagi*

*jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi*

*Narimonova Muhayyo Hikmatjon qizi*

*Rishton Abu Ali ibn Sino nomdagi*

*jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi*

*Ergashev Otabek Murotjon o'g'li*

*Rishton Abu Ali ibn Sino nomdagi*

*jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi*

*Rishton Abu Ali ibn Sino nomdagi*

*jamoat salomatligi texnikumi*

Abstract. Cardiovascular diseases are diseases of the heart, arteries, and veins.

They are numerous and diverse. Some of these diseases (rheumatism, myocarditis, etc.) affect the heart, some affect the arteries (atherosclerosis) or veins (for example, thrombophlebitis), and others affect the entire cardiovascular system (hypertension). Cardiovascular surgical care plays a critical role in the management of patients with surgical conditions affecting the heart and blood vessels. Due to the complex nature of these conditions, a range of techniques and interventions must be utilized to ensure optimal patient outcomes. This article discusses the importance of cardiovascular surgical care.

Key words: heart function, cardiovascular system diseases, endocrine glands, arterial blood vessel, venous, nursing process, patient care.

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari dunyo bo'yicha hozirgi kunga qadar nogironlik va o'limning asosiy sababi ekanligicha qolmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, barcha o'lim holatlarining 56 foizi yurak-qon tomir tizimi kasalliklari oqibatida kelib chiqadi. Yevropa mamlakatlarida yurak-qon tomir kasalliklari yiliga 4,3 mln (48%) aholi o'limiga sababchi bo'ladi.

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari insonning turmush tarzi va mavjud xavf omillari bilan uzviy bog'liq. Ko'pgina xavf omillari turmush tarzini o'zgartirish orqali nazorat qilinsa, ayrimlari (arterial gipertoniya, dislipidemiya va qand miqdori) medikamentoz yo'li bilan korreksiya qilinadi.

Ushbu kasalliklarni oldini olish maqsadida "Yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va davolash sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-sentabrdagi PQ-296-sonli qarori imzolandi.

Aholiga ko'rsatilayotgan kardiologik va kardiojarrohlik xizmatlari sifatini yaxshilash, hududlarda yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish, barvaqt aniqlash va samarali davolash ishlarini kengaytirish, bemorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni zarur dori vositalari bilan uzlusiz ta'minlash hamda Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazi faoliyatini transformatsiya qilish maqsadida:

1. Quyidagilar yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olishda asosiy yo'nalishlar etib belgilansin:

birlamchi tibbiyat muassasalari tomonidan davriy tibbiy ko'rikлarni yo'lga qo'yish hamda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish;

ehtiyojmand aholi qatlamlarini zarur dori vositalari bilan bepul ta'minlash;

hududlarda ko'rsatilayotgan yuqori texnologik, kaminvaziv kardiologik hamda kardiojarrohlik tibbiy xizmatlar ko'lamini oshirish;

birlamchi bo'g'indagi mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish va salohiyatini oshirish, sohada ilm-fanni rivojlantirish;

yurak-qon tomir kasalliklari bo‘lgan bemorlarga tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimini raqamlashtirish.

2. Sog‘liqni saqlash tizimining birlamchi bo‘g‘inida aholi bilan bevosita mahallada ishlaydigan “tibbiyat brigadalar” va oilaviy poliklinikalar rolini tubdan oshirish hamda yurak-qon tomir kasalliklarini erta aniqlash va ularning oldini olish maqsadida 2022-yildan boshlab:

yiliga bir marta 18 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan aholining salomatlik profilini (ovqatlanish xarakteri, tamakiga qaramlik, tana vazni indeksi, arterial bosim, qondagi qand va xolesterin darajasi va boshqalar) baholash;

Yurak-qon tomir kasalliklari O’zbekiston Respublikasi aholisining yuqori o’lim darajasini belgilabgina qolmay, balki erta ish qobiliyatini yo’qotish va nogironlikning asosiy sabalari hisoblanadi. Bemorda tipik yurak shikoyatlari bilan murojaat qilib kelganda, kasallik odatda allqachon surunkali bo’lib, yurak va qon tomirlarda qaytarilmas o’zgarishlarga olib kelgan va jiddiy asoratlar bilan tahdid sola boshlagan bo’ladi. To’sh ortida birinchi marta og’riq paydo bo‘lgan ko’plab bemorlar tibbiy yordam olishga ulgurmay kasalxonaga yotqizguncha vafot etadilar. Bunday hollarda, ushbu bemorlarni tekshirish va boshqarishda hamshiralarni muhim rol o’ynaydi. Shuning uchun kardiologiya kabinetida yoki kardiologiya bo’limida ishlaydigan hamshira chuqur bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishi kerak. U tezda asosiy diagnostika tekshiruvlarini(pu;sni, qon bosimini o’lchash, elektrokardiogrammani tushura olish), bemorning ahvolinii yomonlashuvini o’z vaqtida aniqlash va shifokorni chaqirish va u kelishidan oldin birinchi yordam ko’rsatish imkoniyatiga ega bo’lishi kerak.

Hamshiraning tomir ichiga in’ektsiya qilish yoki preparatni tomir ichiga yuborish qobiliyatiga ega bo’ishi juda muhimdir. Bunday yordam ko’rsatishning kechikishi tezda qon bosimining pasayishiga olib keladi, muolajani amalga oshirishni keskin murakkablashtiradi va o’lim havfini sezilarli darajada oshiradi.

Qon aylanish a’zolari kasalliklarida bemorlarni to‘g‘ri parvarishlash ularning tezroq sog‘ayishiga va asoratlarni oldini olishga yordam beradi. Hamshiralik

parvarishi bemorning shikoyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Yurak sohasi og'rib turgan bemorga shifokor yetib kelguncha validolni qandga tomizib yoki tabletka holida, yo bo'lmasa 1–2 tomchi 1% li nitroglitserin eritmasi beriladi. Validol yoki nitroglitserin ta'siri darrov, 1–2 minutdan keyin boshlanadi. Yurak og'rib turgan mahalda gorchichniklar va yurak sohasiga zuluklar qo'yish ham buyuriladi.

Bemorga ingalatsiya yo'li bilan namlangan kislorod berish hansirashni ancha kamaytiradi. Palata havosi toza, normal temperatura va namlikda bo'lishiga qarab borish zarur. Bemor gavdasining yuqori qismini baland qilib yotqizib qo'yilganda hansirash kamayadi, bunga funksional krovat yordamida osongina erishiladi.

Bemorlarni parvarish qilishda ularni tinchlantirish muhim ahamiyatga ega. Bemorga shifokor ko'rsatmasiga binoan tinchlan tiruvchi vositalar beriladi.

Anchagina shish kelgan mahallarda, bemorlar ko'pincha o'rnidan turmay yotishi natijasida tez orada yotoq yaralar paydo bo'ladi. Shishib qolgan teri yaxshi oziqlana olmaganligi uchun yotoq yaralar tez yiringlab ketadi. Shuning uchun, bemorning o'rnini shunday qilib solib berish kerakki, toki bemor o'rnining badanga tegib turadigan joyida tugunlari va choklar bo'lmasin va davolanishning birinchi kunlaridan boshlab bemorning o'rindagi vaziyatini tez-tez almashtirib turish zarur. Bemorlarda sutkalik diurez va iste'mol qilinayotgan suyuqlik miqdori kuzatib boriladi.

Bemorga ruhiy dam berish katta ahamiyatga ega. Arterial bosim oshganda bemorning bosh tomonini ko'targan holda yotqizish, oyoq va qo'llariga isitgich qo'yish kerak, boldir sohasiga xantal va peshonasiga sovuq kompress qo'yiladi. Shifokor ko'rsatmasiga binoan, boshqa muolajalar qilinadi.

Agar bemor o'rnidan tura olmaydigan bo'lsa, tagiga maxsus sudno qo'yiladi. Bemorni parvarish qilishda ovqat yeyishni to'g'ri tashkil qilishning ahamiyati katta. Bemor 35–40°C temperaturadagi ovqat bilan ovqatlantiriladi.

Bemor odatda o'rnidan turmay yotadigan, ya'ni kamroq miqdorda energiya sarflaydigan bo'lgani uchun ovqati kam kaloriyaligi – 2300kkal, C va B gruppasi vitaminlariga boy bo'lishi kerak. Suyuqligi va tuz miqdori cheklangan bo'lishi lozim.

Chunki bularni ortiqcha iste'mol qilish shishlarga sabab bo'ladi. Tuz miqdori 1 kunda 6 gr dan oshmasligi kerak. Kaliy tuzlari siydik haydovchi ta'sir ko'rsatadi, shu sababdan kartoshka, bargak, anjir, karam, ya'ni tarkibida ko'p miqdorda kaliy bo'ladigan masalliqlarni iste'mol qilib turish tavsiya etiladi.

Kerakli miqdordagi kaloriyani qabul qilish bilan birga, semirish darajasini ham kamaytirish muhim ahamiyatga ega. Tana vaznining 1kg ga kamayishi sistolik va diastolik bosimning 1,0–1,5 mm sim.ust. ga kamayishiga olib keladi. Oqsil mahsulotlarini qabul qilish muhim, ayniqsa, baliq va o'simlik oqsillarini. Bemorlarga yengillashtiruvchi parhez kunlari belgilanadi. Bunday parhezlar moddalar almashinuviga yaxshi ta'sir ko'rsatishga, ortiqcha suv va natriyni organizmdan chiqarib tashlashni kuchaytirishga qaratilgan. Yengillashtiruvchi parhezlar kasallikning xususiyati va odamning ko'tara olishiga qarab haftasiga 1–2 marta buyuriladi.

Olma parhezi: 1 kunda 1,5 kg olma 300 gr dan 5 mahal beriladi.

Turshak parhezi: 500 gr turshak suvda ivitilib, 100 gr dan 5 mahal beriladi.

Sut parhezi: 1,5 litr sut, qatiq, kefir 200–250 ml dan 6 mahal beriladi.

Bodring parhezi: bemor kun davomida 2 kg bodring qabul qilishi kerak.

Bemorlarni o'z-o'zini parvarish qilish ko'nikmalariga o'rgatish ham shi raning vazifasi hisoblanadi (arterial bosimni o'lhash, simptomlarni kuzatish).

Yurak mushaklarni qon bilan ta'minlaydigan toj arteriya larining aterosklerotik o'zgarishi sababli rivojlanadigan bu kasallik hozirgi kunda dunyoda keng tarqalgan kasallik hisoblanadi. Bu kasallikda bir qator boshqa kasalliklar ham uchrab turadi: stenokardiya, miokard infarkti va infarktdan keyingi kardioskleroz shular jumlasidandir

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati

1. Беморларни уйда ва шифохонада парвариш қилиш. Ўзбекистон миллий энциклопедияси - Ф.Ф.Назиров таҳрири остида, таржимон А.Г.Гадоев, Г.С.Орипова -2014

2. Иномов К. Хамширалик иши асослари – Тошкент, 2009
3. Зокирходжаев Ш.Я. Солихов М.У. Шифокор ва бемор – Тошкент – 2016
4. Гребнев А.Л., Шептулин А.А. Основы общего ухода за больными. - М.: Медицина. 1991 г
5. Ziyayeva M.F., Xodjasheva M.D., Kasimova D.I., Xamedova M.A.,
6. Ochilov O‘.B. Kattalarda hamshiralik parvarishi. 1-qism. – Т.: «Niso poligraf»
7. nashriyoti, 2014
8. 2. Yusupova L.Yu., Burixodjayeva H.S., Shadiyeva Sh. Kattalarda hamshiralik parvarishi. 3-qism. – Т.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2012.
10. 3. Barykina N.V., Zaryanskaya V.G. Jarrohlikdagi hamshiralik. - Rostov-
11. Donu: "Feniks", 2010 yil.
12. 4. Yunusjonova Z.S., Mirzayeva S.A., Bositxonova E.I. Psixologik parvarish. «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati», – Т., 2010
14. www. med.uz 6.www.lex.uz 7.www.wikipedia.uz